

O‘QUVCHI YOSHLAR TARBIYASIDAGI GLOBALLASHGAN AXBOROT SHAROITI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Jannazarov Alisher Niyetbay uli

Qoraqalpoq Davlat Universiteti magistranti

Annotatsiya: *Maqolada harbiy ta’lim muassasalarida bugungi kunda xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, aholining, birinchi navbatda, yoshlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra dolzarbligi, globallashgan axborot sharoitida yoshlarning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalalari keng yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *OAV, milliy mentaliteti, sog‘lom e’tiqodi, vatanparvarlik, zaharlovchi ma’lumotlar, «virtual» axborot maydoni, ijtimoiy xavfli axborot*

Globalashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan ayni paytda har qanday ommaviy axborot vositasining jahon axborot makonida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, taraqqiy topishi uning oldida turgan eng asosiy vazifa hisoblanadi. Shu bois bugungi dunyoni, uzoq-yaqinda yashayotgan odamlarning hayotini ommaviy axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Binobarin, OAV insoniyat hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog‘lanib ketgan.

Jahon axborot makonining globallashuvining ayni sharoitida inson ongi, qalbi, milliy mentaliteti, sog‘lom e’tiqodi, vatanparvarlik va fidoyilik tuyg‘ularining kamol topishiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan g‘oyaviy-mafkuraviy, axborot tahdidlari ta’siri sezilmoqda.

Davlatimiz rahbari Murojaatnomada «Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!» deya iqtibos keltirib, oldimizga ko‘plab maqsad va vazifalar belgilab berdi[1]

Bugungi globallashuv sharoitida axborotga bo‘lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Shu boisdan, bugungi kunda xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, aholining, birinchi navbatda, yoshlarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko‘ra dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Axborot xuruji avj olgan asrda atrofda sodir bo‘layotgan voqealar haqida haqqoniy ma’lumotlarga ega bo‘lish, har qanday noxolis axborotlar zamirida yot g‘oyalar mavjudligini aholiga va avvalo yoshlarimizga tushuntirishda ommaviy axborot vositalarining o‘rni va ta’sir kuchining beqiyosligi ayon bo‘lmoqda. Ommaviy axborot vositalari orqali juda tez fursatda tarqalayotgan ijtimoiysiyosiy, mafkuraviy axborotlarning ko‘p foizi jahonning turli mamlakatlarida tashvish uyg‘otmoqda.

Dunyoga egalik qilishga intilayotgan kuchlar aynan axborotdan qurol sifatida foydalanishga urinmoqda. Boshqacha aytganda, bir tomondan axborot insoniyat ma’naviy

olamini kengaytirish, inson ilmutafakkurini boyitishga xizmat qiladigan manba sifatida ahamiyat kasb etayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, axborot insonni o‘zligi, millati, vatanidan ajratadigan va oxiroqibat butunlay manqurtga aylantiradigan «qurol»ga ham aylanib borayotgani bugun hech kimga sir emas. Hozirning o‘zidayoq juda ko‘p mamlakatlar o‘z madaniyati, an‘analari va ma‘naviy qadriyatlarini yot axborot ta‘siridan himoya qilish uchun maxsus choralar ko‘rishga majbur bo‘lmoqda. Shu sababli shiddat bilan kechayotgan voqea-hodisalar oqimida kirib kelayotgan axborotning mazmunini anglash, uni to‘g‘ri talqin etib, xulosalar chiqarish nihoyatda muhim hisoblanadi. Bugun aholi, jumladan, yoshlar kundalik hayoti, ta‘lim jarayoni, ish faoliyatida ham turli mazmundagi ma‘lumotlarga ommaviy axborot vositalari orqali ega bo‘lmoqdalar. Ular ko‘rayotgan filmlar, ko‘rsatuvlar, tinglayotgan radioeshittirishlar mazmun-mohiyati nuqtai nazaridan kelib chiqib, ularning ma‘naviy olamiga turlicha ta‘sir ko‘rsatadi. OAVlar orqali ta‘sir etishning ijobiy va salbiy ko‘rinishlarini hisobga olgan holda shuni aytish mumkinki, inson ma‘naviy kamolotida u qabul qilayotgan axborot muhitining roli katta. Demak, bugun yoshlarning nimani ko‘rib, nimani tinglayotgani birinchi navbatda u voyaga yetayotgan oila, shu bilan bir qatorda ta‘lim muassasalari e‘tiboridan ham chetda qolishi kerak emas.

Axborot makonining eng jadal vositalaridan yana biri internet hisoblanadi. Axborot almashish imkoniyatining mavjudligi va kattaligi bizga keng imkoniyatlar beradi, shu bilan birga insonni ogohlikka chaqiradi. Negaki, internet tarmog‘ida bizga kerakli va zarur bo‘lgan axborotlar bilan bir qatorda milliy mafkuramizga yot bo‘lgan, ma‘naviyatimizga mos kelmaydigan vayronakor va tajovuzkor g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi sahifalar ham bor. Ayniqsa, keyingi yillarda xalqaro tizimda inson ongini zaharlovchi ma‘lumotlar – tajovuzkorlik, jangarilik, qotillik ruhidagi, yolg‘onchilik hamda insoniylik, jamiyatga zid bo‘lgan boshqa axborotlarni targ‘ib qiluvchi sahifalarning ko‘payganligi har birimizni ogohlikka chorlaydi. **Odnoklassniki, Facebook, Twitter, You Tube** kabi ijtimoiy tarmoqlarda yoshlarning biror masala–kitoblar, suratlar, filmlar, qo‘shiqlar haqida bahslashayotganiga ko‘p guvoh bo‘lamiz[2].

Albatta, fikr almashish ongni charxlaydi, tafakkurga quvvat beradi. Lekin ba‘zi ijtimoiy xavfli axborotning aks ta‘siri uning o‘zidan ham xavfliroq manzaralarni hosil qilishi mumkinligini unutmasligimiz lozim.

Internet, uyali telefonlar, axborot texnikasi – bularning barchasi inson aqlidroki, salohiyatining samarasi, inson uchun, uning og‘irini yengil, uzog‘ini yaqin qilish uchun xizmat qiladi, biroq ochig‘ini aytganda, hech qanday avtomatlar, mashinalar, kompyuterlar inson o‘rnini bosa olmaydi, inson qalbi, ruhiga ma‘naviy ozuqa bo‘la olmaydi. Bizning maqsadimiz ulardan voz kechish emas, ulardan oqilona foydalangan holda, o‘zligimiz, qadriyatlarimizni saqlab qolishdan iborat. Bunda albatta, oila, mahalla, ta‘lim muassasalari,

jamoat va davlat tashkilotlarining roli nihoyatda katta. Shularni hisobga olgan holda, globallashtirilgan axborot sharoitida yoshlarning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini shakllantirish masalalari bo‘yicha quyidagi takliflarni bildirish mumkin: - axborot sohasida yoshlarda ijtimoiy fikrni tahlil qilish tizimini kuchaytirish; - yoshlarning «virtual» axborot maydonidagi dunyoqarashini o‘rganish, bu boradagi faoliyat samaradorligini oshirish; - chet el ijtimoiy tarmoqlarining ko‘pchiligida bizning milliy mentalitetimizga to‘g‘ri kelmaydigan salbiy tomonlari ham mavjudligini o‘quvchilarga mashg‘ulotlar davomida tushuntirib borish (masalan, informatika fanining internetni o‘rganish bo‘limida, tarbiyaviy soatlarning ma‘lum bir daqiqalarida); - internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish; - milliy qadriyatlar va o‘zligimizni anglash, ma‘naviyatimizga tahdid kelajagimizga tahdid ekanligini, axborot makonida globallashtirish va kuchli raqobat sharoitida mafkuraviy immunitetni shakllantirish; - o‘tib kelayotgan yosh avlodning media savodxonligi va axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini oshirish -o‘quvchilarga ma‘naviy-axloqiy tarbiya berishda media-ta‘limning, xususan, ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish kerak.

Bu tadbirlarni amalga oshirishda ilmiylik, muvofiqlashtirish, tizimli boshqaruv tamoyillariga rioya etish va tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatini hisobga olish juda muhimdir, jamiyatimizning keng qatlamlari: davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoatchilik tashkilotlari, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari, ota-onalar va pedagoglarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Umuman olganda, so‘z inson ma‘naviy olami haqida borar ekan, ma‘naviy tarbiya mamlakatimiz va fuqarolik jamiyati taraqqiyotining muhim omili ekanligi barchamizga ma‘lum[3].

Darhaqiqat, globallashtirilgan axborot sharoitida, har bir xatti-harakatida Vatan va xalq manfaatlarini o‘ylab yashaydigan barkamol insonni tarbiyalash bosh maqsadga aylanishi lozim. Fikrimizcha, yoshlarning ong, tafakkur tarbiyasiga e‘tiborni qaratish ularning ma‘naviy olami daxlsizligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarning axborot oqimiga munosabatini to‘g‘ri yo‘naltirishda ota-onalar, ustoz va murabbiylar ilm va tarbiya berish jarayonida yoshlarga tushuntirishlari, fikrlarni solishtirish, ularni turlarga ajratish, yaxshi va yomonni farqlashga o‘rgatishlari lozim. Ularning nimani ko‘rib, nimani eshitayotgani va bu haqdagi fikr-mulohazalari bilan oilada ota-onalar, ta‘lim muassasalarida o‘qituvchi va murabbiylar muntazam qiziqib borishlari zarur.

Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda AKT ikki shaklda namoyon bo‘ladi. Birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari innovatsion faoliyatning eng muhim obyekti bo‘lib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri – axborot sanoatini tashkil etadi. Ikkinchidan, AKT muvaffaqiyatli innovatsion faoliyatni va innovatsion iqtisodiyotni ta‘minlash (qo‘llab-quvvatlash) uchun asosiy tizim sifatida ishlaydi.

Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanayotgan axborot sanoati ikkita sektorni o'z ichiga oladi. Birlamchi sektor AKT apparat-dasturiy vositalari, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va ishlab chiqarish, yangi axborot va bilimlarni ishlab chiqarish, shuningdek, axborot xizmatlarini ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan tuzilmalarni birlashtiradi. Bu sektorda axborot faoliyati ustunlik qiladi. Sohaning asosiy mahsuloti axborot va bilim, axborot vositalari, tizim va texnologiyalar, axborot xizmatlaridir.

Axborot sanoatining ikkilamchi sektori moddiy ishlab chiqarish va energiya ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan boshqa iqtisodiy tuzilmalar tarkibiga kiradi. Ushbu tarmoqning faoliyati moddiy va energiya ishlab chiqarish tarmoqlarining samaradorligi va unumdorligini oshirishga qaratilgan, ya'ni ikkilamchi tarmoqda ishlab chiqarilgan axborot tovarlari va xizmatlari tegishli sanoat doirasida iste'mol qilinadi.

Global tahdidlar, ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsizligimiz birinchi navbatda samarali kop tomonlama hamkorlik masalalariga bog'liq. Bu borada xalqaro hamjamiyatning zamonaviy tahdidlarga munosib javob beradigan, xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan faoliyatini o'rganishga alohida etibor qaratish muhim ahamiyatga ega. Turli davlatlarda ma'muriy hudud, siyosiy tizim, davlat boshqaruvining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlash boyicha faoliyat turlicha amalga oshiriladi. Bu borada har bir davlatning o'ziga xos tajribasi mavjud bo'lib, uni o'rganish bugungi kunning dolzarb talablaridan biridir. D.V.Vasilev ta'kidlaganidek, xorijiy tajribani o'rganish ijtimoiy taraqqiyotga yordam beruvchi omillarni aniqlash, jamiyat va uning alohida quyi tizimlari rivojlanishining asosiy qonuniyatlarini ochib berish, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot mezonlarini shakllantirish, ijtimoiy munosabatlar dinamikasini bashorat qilish, mavjud muammolarni bartaraf etishning eng samarali usullarini aniqlash imkonini beradi. [4]

EXHTning kiberxavfsizlik masalalariga umumiy yondashuvini ishlab chiqish va bu jarayonda YXHT rolini aniqlash maqsadida 2011-yilning 9-10-may kunlari Venada "Kiberxavfsizlikka umumiy yondashuv: YXHTning kelajakdagi rolini belgilash" konferensiyasi bo'lib o'tdi. kibermakondan noqonuniy foydalanish shakllari va usullari hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarning tegishli qarshi choralari tahlil qilindi, EXHT mintaqasida xavfsizlikka kiber ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek, ular YXHTning kiberxavfsizlikka kompleks yondashuvni, jumladan, mintaqa mamlakatlari o'rtasida tajriba almashish orqali qo'llash imkoniyatlarini aniqlash va kibermakonda davlatlarning xatti-harakatlarini tartibga soluvchi me'yorlarni ishlab chiqish imkoniyatlarini muhokama qildilar; mintaqada kiberxavfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan qarorlar qabul qilish imkoniyati haqida. 2013-yilda YXHT "mintaqadagi shaffoflik va xavfsizlikni yaxshilash bo'yicha kiberxavfsizlik bo'yicha ishonchni mustahkamlash chora-tadbirlari", jumladan xususiy sektor va muhim

infratuzilma provayderlari bilan hamkorlikni, shuningdek, kiberxavfsizlikni boshqarishga umumiy yondashuvlarni o‘z ichiga olgan innovatsion tavsiyalarni qabul qildi.

2017-yilda bo‘lib o‘tgan YXHTning “Muhim infratuzilmaning kiberxavfsizligi: YXHTda ishonchni mustahkamlash” mavzusidagi Avstriya konferensiyasi tashkilot ishtirokchidavlatlarining AKT xavfsizligining eng dolzarb muammolarini hal qilish, samarali va samarali foydalanish bo‘yicha ilg‘or tajribalarni almashish bo‘yicha muhokamasiga hissa qo‘shdi. tanqidiy hodisalarga o‘z vaqtida javob berish. Qo‘shma chora-tadbirlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: YXHT majburiyatlariga muvofiq kibermakonda terrorchilik va jinoyiy faoliyatga qarshi kurash; muhim infratuzilmani zararli AKT faoliyatidan himoya qilish; amaldagi xalqaro huquq tamoyillari asosida internetda inson huquqlarini himoya qilish. YXHTning Bratislavadagi “Xavfsiz kelajak uchun kiber va AKT xavfsizligi: EXHTning mintaqaviy kiberbarqarorlikni qo‘llab-quvvatlashdagi roli” (2019) konferensiyasi EXHT mintaqasidagi davlat, xususiy va nodavlat sektorlar vakillari uchun platforma yaratdildi[5]. Global, mintaqaviy va milliy miqyosda AKT xavfsizligi masalalari bo‘yicha keng qamrovli muloqot o‘tkazish amalga oshirilmoqta.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yoshlarda g‘oyaviy mafkuraviy immunitetni shakllantirish jarayoni zamonning bugungi talablari hamda aniq chora-tadbirlar asosida, respublika ta’lim tizimining barcha bosqichlarida, ommaviy axborot vositalari faoliyati davomida muntazam va uzluksiz olib borilishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020 yil 24 yanvar
2. Тайлакова Ш.Н. Формирование идеологического иммунитета учащейся молодежи на основе средств массовой информации в условиях глобализации информационных технологий. Современное образование 2015, № 5 стр 5
3. Усманова З.Б. Роль средств массовой информации в формировании политико-правовой активности учащихся молодёжи. Современное образование 2017, № 1
4. Васильев Д.В. Концепции организации деятельности полиции и возможности их использования в отечественной практике: по материалам США и некоторых стран Западной Европы: автореф. дис.... канд. юрид. наук. М., 2005
5. Тинтин Лю .Страны БРИКС в контексте международного опыта обеспечения информационной безопасности. Санкт-Петербург-2021